



MUSIQA FANINI O'QITISHDA ENG ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH.

Husanova Adiba Anvar qizi

*Toshkent viloyati Angren shahar MMTBga qarashli 40-umumiy o'rta ta'limgak maktabi musiqa fani o'qituvchisi
e-mail: adibahusanova@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarga musiqiy ta'limgak berish jarayonida zamonaviy interfaol metodlardan foydalanib musiqa mashg'ulotlarini olib borish yo'llari bayon etilgan. Xususan, "Besh barmoq", "Strup Effekt", "O'chirg'ich metodi" kabilalar darslarini kreativ yondashuv asosida tashkil etishning usul va vositalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: musiqa darslari, zamonaviy yondashuv, metod, interfaol metodlar, dars samaradorligi, raqobat, tafakkur, ijodkorlik faoliyati.

Yangi zamonaviy pedagogik metod va usullar barcha fanlar qatori musiqa fanlarini o'qitishda ham o'z o'rniga ega hisoblanadi. Kelajagimiz yaratuvchilar bo'lgan yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol shaxslar bo'lib yetishishiga, bunday metodlar asosida ta'limgak berish ilgarigi ish uslublarimizga qaraganda progressiv ahamiyatga ega. Garchi musiqa fanlarini o'qitish ko'proq amaliy ravishda olib borilsada, unda ko'proq o'qituvchilarning amaliy foaliyatiga tayanilsada, musiqa fanlarining yangi kreativ usullar va interfaol metodlaridan foydalanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari, nazariy bilimlari mavjud. Bolalar bilan o'tkaziladigan musiqa madaniyati mashg'ulotlarida o'rgatiladigan asarlar ularda faqat eshitishni rivojlantirib qolmay, balki talaffuzni, so'zlarni bo'g'lnlarga bo'lib ijro etish, ritmikani, harakatni, intonatsiyani, ovoz hosil qilishni ham rivojlantiradi. Shuning uchun ritmik ohangni so'zlar (subtitr) bilan bolalar bilan birga kuylashga va ayrim jumلالарни takror kuylashga e'tibor berish kerak. Quyidagi metodlar musiqa fanini qiziqarli va zamonaviy pedagogga xos dars o'tishda muhim o'rin egallaydi.

"BESH BARMOQ" metodi

Har bir darsda butun sinf o'quvchilarini baholash qiyin, ammo bu metod yordamida ularni qisqa vaqt ichida baholay olamiz. Bu metoddan istalgan fanda foydalanish mumkin.



◆ Har bir o‘quvchiga barmoqlarga beshta savol yozilgan kaft shabloni tarqatiladi.



1. Kaft shabloni tagiga o‘quvchilar o‘z ismini yozadilar.

2. O‘quvchilar savollarga javoblarini qayd qiladilar. Joy yetmasa, qog‘ozning orqa tarafiga yoziladi.

3. Javoblar yozib bo‘lingach, tekshirish maqsadida shablonlar yondosh sheriklar bilan almashinadi.

4. O‘qituvchi ketma-ket javoblarni e’lon qiladi.

Talab:

◆ Xato yozilgan javobli barmoq buklanishi kerak.

◆ Shablonlar egasiga qaytariladi va har bir o‘quvchi "kaftlarni" ko‘rsatib necha baho olganlarini bilib oladilar.

◆ Bu qiziq va vaqtini tejaydi.

"O‘CHIRG‘ICH METODI"

Kerakli o‘quv qurollar :

➤ O‘chirg‘ichlar

➤ Qalam

➤ Oq qog‘oz



1 O‘quvchilar soniga qarab ularni guruhlarga ajratib olinadi. Har bir guruhda 5 tadan o‘quvchi bo‘lsa maqsadga muvofiq bo‘ladi;

2 Oldindan oq qog‘ozlarga mavzuga oid 15 ta to‘g‘ri va 15 ta noto‘g‘ri ma’lumotlarni qog‘ozning turli joylariga yozib chiqqan bo‘lishingiz kerak (Ya’ni ma’lumotlar bitta to‘g‘ri bitta noto‘g‘ri yoki bir tomonda faqat to‘g‘ri, bir tomonda faqat noto‘g‘ri javoblar emas aralash tarzda yozilgan bo‘lishi lozim. Ma’lumotlarni mavzuga moslab uyda tayyorlab kelinsa vaqtdab yutiladi.)

3 Har bir guruhdan boshqalarga nisbatan bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilardan 2 tasini o‘chiruvchi vazifasiga tayinlanadi.

4 O‘quvchilarga vazifani tushintiriladi. Demak, ular mavzuga aloqador bo‘limgan so‘zlar yoki gaplarni o‘chirib chiqishlari lozim.

5 Sharjni bajarish uchun 5 yoki 6 daqiqa vaqt belgilab va belgilangan vaqt tugagach barcha qog‘ozlarni yig‘ib olinadi.

6 Qog‘ozlarni birma-bir doskaga ilib jamoalarning xato va kamchiliklarini ko‘rib chiqiladi va shu tariqa g‘olib jamoalarni aniqlanib, baholanadi.

“STRUP effekti” metodi

❖ Psixologiyada Strup effekti — so‘zlarni o‘qish paytida, so‘zlarning rangi yozilgan so‘zlarga mos kelmasa, reaksiyaning kechikishi deb ataladi (masalan, "qizil" so‘zi ko‘k rangda yozilgan bo‘lsa, biz beixtiyor buni qizil deymiz).

◆ Effektiv bu testni 1935-yilda ingliz tilida birinchi marta nashr etgan Jon Ridli Strup nomi bilan atalgan . Bungacha bu effekt 1929-yilda Germaniyada nashr etilgan. Ushbu tadqiqot eksperimental psixologiya tarixidagi eng ko‘p keltirilgan tadqiqotlardan biriga aylandi.

◆ Bugungi kunda Strup testi kognitiv qat’iylikni va bilimni boshqarish moslashuvchanligini diagnostika qilish usuli sifatida keng tanilgan va unga asoslangan vazifalar ko‘pincha o‘z-o‘zini rivojlantirish va miyani o‘qitish dasturlariga kiritilgan.



YASHIL QORA	YASHIL KO'K
QIZIL KO'K	SARIQ QIZIL
YASHIL QIZIL	SARIQ QIZIL
SARIQ YASHIL	SARIQ YASHIL
QORA KO'K	KO'K SARIQ
YASHIL QORA	YASHIL KO'K
KO'K SARIQ	QORA QIZIL
QIZIL QIZIL	YASHIL SARIQ
SARIQ QORA	KO'K QORA

❖ Maktabda ham o‘quvchilar bilan diqqatni jamlash mashqlarida yoki dam olish daqiqalarida o‘tkazib turilsa ajoyib natija beradi.

Xulosa qilib aytganda, darslarni qanchalik qiziqarli tashkil etish bu ayna o‘qituvchining mahorati bilan bog‘liq hisoblanadi. Aslida, samarasiz metod yo‘q. Har qanday metoddan darsda mahurat bilan foydalana olishlik har pedagogning ajralmas vazifasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Namozova, D. T. (2021). Musiqa darslarida o‘quvchilarni kreativlik hamda erkin tafakkurini shakllantirishni tashkil etish. Scientific progress, 2(2), 1313-1315.
2. Namozova Dilorom, & Astanova Zumradxon Tohirovsna (2022). Brayl nota tizimining musiqa ta’limidagi ilk qadamlari. Science and innovation, 1 (C2), 36-38. doi: 10.5281/zenodo.656980
3. Madina Nasretdinova, Ismoil Rustamov, & Oybek Karimov (2022). Musiqa san’atining hozirgi kundagi o‘rni. Scientific progress, 3 (2), 841-845.